



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 12 - oktabr

VI-65-194-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

### Angor tumanidagi ayrim geografik obyektlarni nomlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi 295-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 27-dekabrda 01366-sonli ekspert xulosa olingan. Kadastr agentligining 2022-yil 28-dekabrda 08-11759-sonli xati va ekspert xulosalariga asosan Angor tumanida 60 ta nomsiz va nomi qonun talablariga javob bermaydigan ko'cha va tor ko'chalarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha o'rganilib chiqilib ijobiy xulosa berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

### QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 27-dekabrda 01366-sonli ekspert xulosa olingan. Kadastr agentligining 2022-yil 28-dekabrda 08-11759-sonli xati va ekspert xulosalariga asosan Angor tumanida 60 ta nomsiz va nomi qonun talablariga javob bermaydigan ko'cha va tor ko'chalarni nomlash va qayta nomlash ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o'rinbosari (B. Xakimov), tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (G. Qurbonova), Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i (U. Qosimov), tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlari raislari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig'inlarida ko'cha nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni 1 oy muddatda belgilangan tartibda o'rnatish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman statistika bo'limi (A. Xudoyorov), O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Angor tuman filiali (E. Mengliyev) nomlangan ko'chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro'yxatga olish vazifasi yuklatilsin va tuman Ichki ishlar bo'limi (S. Choriyev) fuqarolarni doimiy yashash joyiga ro'yxatga qo'yishda yangi nomlangan ko'chalarni inobatga olish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash uchun tuman hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi (G.Qurbonova) hamda tuman hokimining o'rinbosarlari (B.Xakimov), Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i (U.Qosimov)lar mas'ul etib belgilansin.

5. Belgilab qo'yilsinki, nomlangan va qayta nomlangan ko'chalarga peshlavhalar tayyorlash, o'rnatish uchun sarflanadigan mablag'lar qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplanadi.

6. Mazkur qaror "Angor yog'dusi" gazetasida rasman e'lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog  
liqni saqlash,  
madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova), Sud-  
huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (Y.Xalimov)  
zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**